

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./CGEM4037>
UDC: 34(043.5)(575.1)

NORMA IJODKORLIGI JARAYONINI ILMIY AXBOROT BILAN TA'MINLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Sodiqov Akmal Shavkat o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat va huquq nazariyasi kafedrası dotsenti v. b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0001-6453-1327

e-mail: akmalsodikov81@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi norma ijodkorligi jarayonida ilmiy axborot bilan ta'minlash masalasini tadqiq etish orqali bu borada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot predmetini O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti hamda ilmiy-nazariy konseptual yondashuvlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi. Mazkur tadqiqot ishi natijasida norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash tushunchasi ishlab chiqilgan, "evidence-based lawmaking" konsepsiyasini mamlakatimiz qonunchiligiga joriy etish, mutaxassis yoki olimlarning ilmiy xulosasini qonun loyihalariga ilova qilish mexanizmi, ilmiy darajalar olish uchun talabgorlar tomonidan ishlab chiqilgan takliflarni ommaviy onlayn axborot tizimida e'lon qilish tizimini ishlab chiqish, "Ilmiy axborot" milliy ilmiy-texnik bazasini yaratish, olim va mutaxassislarning yillik reytingini aniqlash mexanizmini yaratish takliflari ilgari surilgan. Tadqiqot natijalaridan ilmiy izlanishlar olib borish, normativ-huquqiy hujjatlarning tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, Davlat va huquq nazariyasi, Norma ijodkorligi va Yuridik texnika o'quv modullaridan ta'lim berish hamda mazkur modullarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: "evidence-based lawmaking", ilmiy axborot, ilmiy darajalar olish uchun talabgorlar, ilmiy xulosa, norma ijodkorligi, norma ijodkorligini ilmiy axborot bilan ta'minlash, "science-based lawmaking".

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ НАУЧНОЙ ИНФОРМАЦИИ В НОРМОТВОРЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Содиков Акмал Шавкат угли,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Теория государства и права»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы совершенствования механизма предоставления научной информации в нормотворческом процессе. Целью исследования является разработка актуальных предложений, рекомендаций и выводов по совершенствованию законодательства Республики Узбекистан и практики правоприменения. В этой связи исследованы вопросы предоставления научной информации в нормотворческом процессе, предметом исследования являются нормативно-правовые акты, касающиеся

нормотворческого процесса в Республике Узбекистан, практика применения права, а также научно-теоретические концептуальные подходы и правовые категории. В исследовании применялись такие методы, как исторический, системно-структурный, логический, индукционный, дедуктивный, сравнительно-правовой, комплексного исследования научных источников и статистического анализа данных. В результате научного исследования разработаны авторское определение понятия «обеспечение нормотворческого процесса научной информацией», предлагается ввести в национальное законодательство понятие *evidence-based lawmaking*, механизм прикрепления научных заключений экспертов или ученых к законопроектам, разработан обязательный механизм подачи предложений, разработанных соискателями ученых степеней, в целях создания национальной научно-технической базы *Ilmiy axborot* и механизма определения ежегодного рейтинга ученых и специалистов в этой сфере.

Ключевые слова: *evidence-based lawmaking*, научная информация, соискатели ученых степеней, научное заключение, нормотворчество, обеспечение нормотворческого процесса научной информацией, *science-based lawmaking*.

SOME ISSUES OF IMPROVING THE MECHANISM OF PROVIDING THE RULE-MAKING PROCESS WITH SCIENTIFIC INFORMATION

Sodikov Akmal Shavkat ugli,

Acting Associate Professor, Department of
Theory of State and Law, Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *This article analyzes the issues of improving the mechanism of providing the rule-making process with scientific information. The purpose of the research is to develop relevant proposals, recommendations and conclusions on improving the legislation of the Republic of Uzbekistan and the practice of law enforcement in this regard by researching the issue of providing scientific information in the rule-making process. The subject matter of the research is normative legal acts related to the rule-making process in the Republic of Uzbekistan, the practice of applying the law, as well as scientific-theoretical conceptual approaches and legal categories. Methods such as historical, systematic-structural, logical, induction, deduction, comparative-legal, comprehensive research of scientific sources and statistical data analysis have been applied in the research. As a result of this research work, the concept of providing the rule-making process with scientific information was developed, it is suggested to introduce the concept of “evidence-based lawmaking” into the national legislation, the mechanism of attaching the scientific conclusions of experts or scientists to the draft laws and the obligatory mechanism of declaration of proposals developed by applicants for obtaining scientific degrees was developed, suggestions to create a national scientific and technical base of “Ilmiy axborot – Scientific Information” and to create a mechanism for determining the annual ranking of scientists and specialists were put forward.*

Keywords: *evidence-based lawmaking*, scientific information, applicants for scientific degrees, scientific conclusion, rule-making, provision of the rule-making process with scientific information, *science-based lawmaking*.

Kirish

Ilm-fan rivoji mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Ilm-fan yutuqlaridan nafaqat bir sohada, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalari, xususan,

norma ijodkorligi jarayonida ham foydalalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada M.A. Axmedshayeva normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda jamoatchilik, jumladan, ilmiy jamoatchilik

fikrini o'rganish lozimligi [1], Q.Q. Abdullayev normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ilmiy-nazariy jihatdan lozim darajada ta'minlash kerakligi [2, 43-b.], Sh.N. Berdiyarov normativ-huquqiy hujjat loyihalari konsepsiyasida huquqshunos olimlar va boshqa mutaxassislar takliflarining sharhi keltirilishi [3], P.A. Rustamov ilmiy asoslantirish institutsional yondashuv asosida hal etilishi zarurligi [4], I.T. Tulteyev ilmiy asoslantirilganlik darajasi huquq ijodkorligini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi [5], O.Z. Shodiqulov ilmiy asoslantirish yuridik texnikaning prinsipi sifatida qaralishi lozimligi [6, 13-b.], X.S. Hayitov ilmiy ekspertizani rivojlantirish zarurligi [7], Sh.A. Saydullayev norma ijodkorligi jarayonidagi asosiy muammolardan biri ilg'or xorijiy davlatlarning "innovatsion g'oyalaridan" [8, 136-b.] foydalanish kerakligini ta'kidlashgan.

Darhaqiqat, olimlarning fikr-mulohazalarini qo'llab-quvvatlagan holda, norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash darajasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish zarurligini ta'kidlash lozim. Biroq norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash konsepsiyasini tadqiq etish, ilmiy axborot bilan ta'minlash holatiga baho berish, norma ijodkorligining barcha bosqich va turlarida "ilmiylik" bo'yicha aniq mexanizmni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur ilmiy maqolada norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash darajasi tahlil etilgan. Shuningdek, norma ijodkorligi jarayonida olim va ekspertlar ishtirokini ta'minlash, ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish mexanizmining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi takliflar mazkur nazariy-huquqiy muammoning yechimi bo'lishining ehtimoli tadqiq etilgan.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni

kompleks tadqiq etish va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot obyekti – O'zbekiston Respublikasi norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash borasida yuzaga kladigan huquqiy munosabatlar tizimi.

Tadqiqot predmetini O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ilg'or xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda ilmiy-nazariy konseptual yondashuvlar va huquqiy kategoriyalar tashkil qiladi.

Mazkur tadqiqot ishi norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari

Yuqorida keltirilgan ilmiy isbotlash metodlari asosida norma ijodkorligi jarayonida ilmiy axborotdan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari, norma ijodkorligi jarayonida olim va ekspertlar ishtirokini ta'minlash, ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish mexanizmining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1. Norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash tushunchasi ishlab chiqiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni 22-moddasining to'rtinchi qismiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi asoslab berildi.

3. "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunining 27-moddasiga o'zgartirish kiritish orqali qonun loyihasiga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxatiga mutaxassis yoki olimlarning ilmiy xulosasini kiritish taklifi asoslantiriladi.

4. Ilmiy darajalar olish uchun talabgorlar tomonidan ishlab chiqilgan takliflarni onlayn

axborot tizimida majburiy aks ettirish mexanizmini joriy etish asoslab beriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy axborot" milliy ilmiy-texnik bazasini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini ishlab chiqish taklifi asoslantiriladi.

6. "Evidence-based lawmaking", "science-based lawmaking" konsepsiyalarini joriy etish dolzarbligi asoslab beriladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Norma ijodkorligini ilmiy axborot bilan ta'minlashda normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish vakolatli subyekt bilan zaruriy bilimga ega bo'lgan olim va mutaxassislarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini taqozo etadi. Ayniqsa, sog'liqni saqlash muammolarini birgalikda hal qilish uchun olimlarga bo'lgan ehtiyoj bugun har doimgidan ham ahamiyatli bo'lib bormoqda. Jumladan, B. Choi, A. Gupta, B. Wardlarning fikricha [9. P. 179], tibbiyot olimlari va norma ijodkorlari o'rtasida bo'shliq mavjud bo'lib, uni bartaraf etish o'ta muhim.

So'nggi kunlarda mamlakatimizda "Dok-1 Maks" dori vositasi ortidan sodir bo'lgan mudhish voqealar [10] tibbiyot olimlari va norma ijodkorlarining o'zaro kelishgan holda, dori vositalari bilan bo'ladigan munosabatlarni qat'iy normativ tartibga solish ehtiyojini keltirib chiqargani bejiz emas.

Sog'liqni saqlash sohasiga oid norma ijodkorligi faoliyatiga mutaxassis va olimlarni jalb etish, ularning ishtirokini rag'batlantirish masalalarini imperativ normalar bilan qat'iy belgilash maqsadga muvofiq. Zero, bu masala normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarini tartibga solish ta'sirini baholash majburiy tarzda o'tkaziladigan holatlarda ham inobatga olinmagan. Bu masala COVID-19 pandemiyasi sharoitida aholi sog'lig'ini saqlash borasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ilmiy ta'minlanganlik darajasini ko'rib chiqishni kun tartibiga qo'yimoqda.

Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olishga doir qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 254-son qaroriga ko'ra, deyarli har bir davlat va nodavlat tashkilotlarning kirish qismlariga "dezinfekcion tunnellar" o'rnatildi. Oradan besh oy o'tib, 2020-yil 16-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan dezinfeksiya tunnellaridan foydalanish "eng foydasiz chora" [11] deb topildi. Yana bir holat COVID-19 infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolashda qo'llanadigan dori vositalari va biologik faol moddalar ro'yxatini [12] shakllantirishda ham ko'zga tashlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyuldagi 449-son qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra, gidroksixloroxin dori vositasi COVID-19 infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari jadvalining birinchi o'rnidan joy olgan. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi 7,3 mlrd so'm sarflagan. Ammo Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan mazkur dori vositasining qo'llanishi taqiqlangan.

Shuningdek, doktorlik dissertatsiyalari natijalarining norma ijodkorligida aks etishi masalasi ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bu borada M. Mamasiddiqov fan doktori darajasiga erishgan fuqaro davlat va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'sha olishi mumkinligini qayd etib o'tadi [13, 15-b.]. Biroq amalda fan doktori yoki falsafa doktorlik darajasini qo'lga kiritib, norma ijodkorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan olimlarni uchratish mushkul.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2018-yilning 1-choragida 67 nafar talabgorga fan doktori, 190 nafar talabgorga falsafa doktori ilmiy darajasi

berilgan [14]. Ammo ularning jamiyat hayoti, ayniqsa, norma ijodkorligiga hissa qo'shishi masalasi ochiq qolgan.

Fikrimizcha, ilmiy izlanuvchilarning ilmiy ishlari natijalari norma ijodkorligi uchun muhim axborot-tahliliy imkoniyatga ega bo'lib, ilmiy ta'minlanganlik darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xorijiy olimlar, xususan, F. Ferraro va A. Zambonlar norma ijodkorligi asoslantirilgan, ratsional, axloqiy va kognitiv yondashuvni taqozo etishi [15, 28-b.], B. Smit o'z tadqiqotlarida qaror qabul qilishda ishtirok etuvchi olimlarni rag'batlantirilmalik asosiy muammolardan biri ekanligini ta'kidlab o'tadi [16, 4-b.].

Y. Kammerxofer norma ijodkorligi jarayonida olimlarning ishtirokiga to'xtalib o'tib, bu bo'yicha ikki yondashuvni qayd etadi: birinchidan, olimlarning xalqaro normalarni ishlab chiqishdagi ta'siri faktik yoki empirik bo'lsa; ikkinchi tomondan, ularning milliy norma ijodkorligida vakolatga ega emasligini ta'kidlaydi [17].

Yuqorida nomlari qayd etilgan huquqshunos olimlarning fikrlari o'rinli ekanligini qayd etish mumkin. Biroq o'z o'rnida ilm-fan bir necha soha va tarmoqlar, xususan, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy va boshqa shu kabilarga tasniflanishini inobatga olib, o'z navbatida, norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlashda tegishligicha ilmiy-tabiiy, ilmiy-huquqiy, ilmiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqa yo'nalishlarga tasniflashni ilgari surish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, B. Smitning fikriga to'laqonli qo'shilgan holda, mamlakatimizda norma ijodkorligiga hissa qo'shgan olim va mutaxassislarni rag'batlantirish mexanizmi ishlab chiqilmaganligiga guvoh bo'lish mumkin. Bu masala amalda olim yoki mutaxassis faoliyat olib borayotgan korxona, muassasa, tashkilotning rahbariy irodasiga bog'lab qo'yilganligini afsus bilan qayd etish lozim.

Darhaqiqat, turli ilmiy va yuridik fanlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarida katta ta-

fovut mavjudligini kuzatish mumkin, ammo uning kelib chiqishidagi asosiy sabablardan biri norma ijodkorligi jarayonini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar-ga jalb etiladigan ekspert, mutaxassis va olimlarni yetarli darajada rag'batlantirmaslik, olimlarning ishtirokini ta'minlashga oid huquqiy normalarning dispozitiv ekanligidir (O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 22-moddasi, "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasi).

2020-yil 27-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'z ahamiyatini yo'qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6075-sonli Farmonining 10-bandiga muvofiq, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Fanlar akademiyasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda 2021-yil 1-fevralga qadar ekspert va mutaxassislar, ilmiy darajalar olish uchun talabgorlar tomonidan ishlab chiqilgan takliflarni ommaviy onlayn axborot tizimida majburiy aks ettirish mexanizmini joriy etish belgilandi.

Ammo mazkur norma amalda ijro etilmayotganligini kuzatish mumkin. Bunday onlayn axborot tizimi hanuzgacha ishga tushirilmagan yoki keng jamoatchilikka oshkor etilmagan.

Shuningdek, norma ijodkorligi subyektlari tomonidan ilmiy tadqiqot bazalariga erkin kirish imkoniyatini taqdim etadigan elektron ilmiy fondlar yaratish zarur. Bu masalaga ilmiy jamoatchilikni jalb qilish maqsadida xalqaro texnik bazalar (Science direct [18], Scopus [19]) yoki aksariyat mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib (Turkiya – TÜBİTAK [20], Scimago Ranking [21]; Rossiya Federatsiyasi – РИНЦ (Российский индекс научного

цитирования [22]), mamlakatimizda ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy maqola va nashrlarning milliy ilmiy-texnik bazasini yaratish taklifi ilgari suriladi.

Jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, ilm-fan yutuqlari, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, jismoniy va yuridik shaxslarning ilmiy-tahliliy axborotga bo'lgan zaruriy ehtiyojini qondirish, norma ijodkorligi jarayonini ilmiy jihatdan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy axborot" milliy ilmiy-texnik bazasini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini ishlab chiqish lozim.

Bunda intellektual mulk qonunchiligi talablariga amal qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining (mualliflik huquqi subyektlari) xorijiy yoki respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalari, ilmiy darajalar olish uchun talabgorlarning dissertatsiyalari, ilmiy tadqiqot institutlari faoliyat natijalari e'lon qilingan tahliliy materiallar va boshqa chop etilgan ilmiy ishlarini Milliy ilmiy-texnik bazada integratsiyalashtirish zarur.

Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash darajasini ko'tarishga xizmat qilib, ilmiy axborot bilan ta'minlash mexanizmi takomillashishiga zamin yaratadi.

Olib borilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, norma ijodkorligi jarayonining xolis va asoslantirilgan ilmiy axborot bilan ta'minlanmaganligi nafaqat davlat budjeti mablag'lari, balki aholi sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli norma ijodkorligini ilmiy axborot bilan ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish lozim bo'lib, unda xolislik, betaraflik, ilmiy asoslantirilganlik, jamiyatning barcha a'zolari manfaatlarini muvozanatini saqlashga qaratilgan prinsiplarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Shuningdek, mazkur konsepsiyaga "evidence-based lawmaking", "science-based

lawmaking" tushunchalarini kiritish hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. G'arb mamlakatlarida ushbu tushunchalar allaqachon keng rivojlanib, ularni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Uning o'zbek tilidagi tarjimasi "dalillarga asoslangan qonun ijodkorligi" bo'lib, "evidence-based medicine" (dalillarga asoslangan tibbiyot), "evidence-based policy" (dalillarga asoslangan siyosat) va "evidence-based management" (dalillarga asoslangan boshqaruv) tushunchalarining rivojlanishi natijasida kelib chiqadi [23].

P.A. Rustamov va X.S. Hayitov bu masala normativ-huquqiy hujjatlarning ilmiy ekspertizasi bilan hal etilishi mumkinligi A.A. Xo'janazarov esa normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda ilmiy asoslantirilganlik masalasini tamoyil sifatida qayd etib, ikki jihat (ilmiy strategiyaga tayanish, ilmiy tavsiyalarni inobatga olish) nuqtayi nazardan yondashadi [24, 21-b.].

M. Antokolskaia dalillarga asoslangan norma ijodkorligi qarorlar qabul qilishda oqilona va yo'naltirilgan yondashuvni taqozo etib, ilmiy tadqiqot natijalariga tayanish zarurligi [25, 174-b.], D. Byrne bunday axborotdan foydalanish norma ijodkorligida manfaatlar to'qnashuvidan xoli bo'lishiga xizmat qilishi [26], M. Ber-man ilmiy tadqiqot natijalari "chalg'ituvchi axborot" (misleading information) [27, 396-b.]dan xalos bo'lishga yordam berishini ta'kidlaydi.

L. Tomsonning fikricha, dastlab Buyuk Britaniya Parlamenti ilmiy dalillarga asoslangan axborot bo'yicha qonun hujjatlari ishlab chiqishda boshqa norma ijodkorligi subyektlaridan sezilarli darajada orqada bo'lgan, biroq "evidence-based lawmaking" mexanizmi, qonunchilik asoslari, maxsus parlament axborot markazi va qo'mitalari (Buyuk Britaniya Parlamentiga kiritilgan qonun loyihasida ilmiy axborot va tadqiqotlardan foydalanganlik darajasini tekshiruvchi "vaqtinchalik qo'shma qo'mita" – ad hoc joint

committees) [28, 100-b.] tashkil etilishi bilan bu kamchilik bartaraf etilgan. Buyuk Britaniyaning "Institute for Government" nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan "Siyosatchilar bilan qanday bog'lanish kerak?" (How to engage with policymakers?) nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan bo'lib [29], unda bir nechta holatlar yordamida norma ijodkorligi jarayoniga ta'sir etish imkoniyati tushuntirib beriladi.

P. Delvenne, S. Fallon va S. Brunetlar norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash masalasi muayyan mexanizm va modellarga asoslanishi lozimligi [30], bunday modellar jamiyatda mavjud tuzilmalarini o'zgartirib yubormasdan noaniqliklarni bartaraf etishini bildirib o'tishadi. S.A. Shapironing fikricha [31, 679-b.], zaruriy bilimga ega bo'lgan mutaxassislar norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot ishonchli va foydali ekanligini tekshirishda ishtirok etishlari zarur.

Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bunday munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, norma ijodkorligi jarayoniga ilmiy xulosalarni majburiy tatbiq etish mexanizmi joriy etilgan. Misol tariqasida AQShda "Dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqish to'g'risida"gi (Evidence-based Policymaking Act) qonunga binoan, federal darajadagi (Kongress va Prezident Administratsiyasi va boshqalar) normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda ilmiy axborotdan foydalanish majburiyligi belgilangan.

Mazkur qonunning 101-bandiga muvofiq, qonun loyihasiga ilova qilinadigan ilmiy xulosa tegishli talablarga javob berishi hamda yetarlicha asoslantirilganligi Boshqaruv va byudjet idorasi (Office of Management and Budget) tomonidan nazorat qilinadi.

Shuningdek, ilmiy xulosaning quyidagi jihatlari Boshqaruv va byudjet idorasi tomonidan tekshiriladi:

axborotning yetarliligi;

axborotni tayyorlashda norma ijodkorligida foydalanish mumkin bo'lgan usullar va tahliliy yondashuvlarning qo'llanganligi;

axborot to'plashda qiyinchiliklar, jumladan, tegishli ma'lumotlarga kirish uchun har qanday qonuniy yoki boshqa cheklovlar mavjud yoki mavjud emasligi.

Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihasining parlament tomonidan ko'rib chiqilishidan oldin keltirilgan axborot va ma'lumotlarni tekshirish qonun ijodkorligining eng dastlabki bosqichi sifatida baholandi.

Shuningdek, boshqa norma ijodkorligi subyektlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarni yaratishda ilmiy ta'minlanganlik darajasini oshirish masalasi Boshqaruv va byudjet idorasi tomonidan rag'batlantiriladi [32, 2-b.].

Shu o'rinda norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash mexanizmiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda qonun ijodkorligini ilmiy jihatdan ta'minlash, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tomonidan olib borilishi belgilab berilgan bo'lsa-da, norma ijodkorligi jarayonining ilmiy asoslantirilganlik darajasini oshirish, normativ-huquqiy hujjat loyihalarining ilmiy apparatini kuchaytirish bo'yicha tadqiq etish lozim bo'lgan masalalar mavjud.

2021-yil 25-yanvarda "Oliy Majlis palatalari faoliyatini ilmiy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlashning dolzarb masalalari" mavzusida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti direktori F.X. O'toxonovning qayd etishicha, institut tomonidan 2018–2020-yillar davomida amaldagi qonunlar va qonun loyiholari yuzasidan 138 ta ilmiy xulosa, Oliy Majlis palatalarining 21 ta qaror loyihasi, 380 ga yaqin axborot-tahliliy ma'lumotlar, 20 ga yaqin chora-tadbirlar rejasi tayyorlangan.

Bu holat mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti faqat qonun loyihalarini ilmiy asoslantirilganlik holatini ko'zdan kechirishidan dalolat beradi. Ammo bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy ekspertiza ham faqat Qonunchilik palatasining tegishli topshirig'i asosida o'tkaziladi. Shuningdek, qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritilgandan so'ng amalga oshiriladi. Ya'ni qonunchilik tashabbusi subyekti hamda mazkur institutning amaliy hamkorligi amalda kuzatilmaydi. Qonun loyihalarini ilmiy asoslantirilganlik holatini tekshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritilayotgan qonun loyihasiga ilova qilinadigan hujjatlar qatoriga tegishli mutaxassis yoki olimlarning xulosalari kiritilmaydi. Aksincha, qonun loyihasining ilmiy ekspertizasi Qonunchilik palatasidagi muhokamalar bilan bir vaqtda olib boriladi.

Shuningdek, norma ijodkorligi jarayonini tashkiliy jihatdan ilmiy axborot bilan ta'minlaydigan yana bir institutga to'xtalib o'tamiz. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-dekabrda PQ-462-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti o'z faoliyatini tom ma'noda qayta boshladi. Avvalo, mazkur institutning shakllanishi Toshkent davlat yuridik universitetining tadqiqot markazidan "ildiz oladi". Zero, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-iyundagi 442-son qarori bilan Toshkent davlat yuridik universitetining Huquqiy tadqiqotlar markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Huquqiy siyosat tadqiqot instituti norma ijodkorligi faoliyatini ilmiy-uslubiy ta'minlashning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida tuzilgan edi. Bugungi kunga kelib, u O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va

huquqiy siyosat instituti sifatida qayta shakllantirildi.

Mazkur institutning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy siyosatini shakllantirish va amalga oshirish borasidagi faoliyatini ilmiy, axborot-tahliliy jihatdan ta'minlash belgilandi. Bu ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjatlarining ilmiy ta'minlanganligiga xizmat qilib, boshqa turdagi normativ-huquqiy hujjatlarda ilmiy asoslantirilganlik holatining sifatini shubha ostiga qo'yadi. Shuningdek, mazkur institutning shakllanishiga ko'p vaqt bo'lmaganligi tufayli uning amaliy faoliyati natijalari bo'yicha xolis baho berish imkoniyatini taqdim eta olmaydi.

Mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organ, zarur bo'lganda, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashni davlat organlari, ilmiy va boshqa tashkilotlarga shartnoma asosida buyurtma berishi masalasiga oid norma dispozitiv xarakterga ega bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlarning irodasini taqozo etadi. Shu sababli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish uchun axborot to'plash, qayta ishlash va taqdim etish bo'yicha ishchi guruh tarkibiga ilmiy va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari hamda fuqarolar kiritilishi, normativ-huquqiy hujjat loyihasini nodavlat tashkilotlar, ilmiy tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalariga taqriz ("Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasi) uchun yuborilishini qat'iy belgilash maqsadga muvofiq.

Mazkur mexanizmning joriy etilishi natijasida qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishdan oldin ilmiy ekspertizadan o'tkazish zaruriyatini tug'diradi. Bu, o'z navbatida,

loyihaning ilmiy apparatini kuchaytirish, puxta ishlab chiqish va kelajakda o'z samarasini berishga xizmat qiladi.

Nazarimizda, mazkur normani joriy etish norma ijodkorligini ilmiy axborot bilan boyitish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari-ning amalga kiritilishi bilan o'z samaradorligini ko'rsatish, norma ijodkorlari hamda ilmiy faoliyat vakillari o'rtasidagi samarali hamkorlikka zamin yaratadi. Shuningdek, norma ijodkorligi faoliyatida ilmiylik prinsipi-ning amalga qo'llashga doir mexanizmini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan takliflarni yanada ilmiy-nazariy asoslantirish maqsadida quyida huquqshunos olimlar hamda ilg'or xorijiy tajribani ko'rib chiqishimiz mumkin.

Norma ijodkorligi jarayoniga zaruriy bilimga ega bo'lgan olimlarni jalb etish va ularni rag'batlantirish masalasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, T.Y. Xabriyevaning fikricha, universitet professor-o'qituvchilari va ilmiy markazlarning mutaxassislarini norma ijodkorligi faoliyatiga jalb etish norma ijodkorligining ilmiy-professional muhit bilan uyg'unlashishiga xizmat qiladi [33, 97-b.].

Shveysariyada hukumat va davlat idoralarida faoliyat yuritmaydigan mustaqil mutaxassis va olimlarni norma ijodkorligiga jalb qilish keng tarqalgan. Oliy o'quv yurtlari, ta'lim muassasasi vakillari, mutaxassislar va ekspertlarning normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etishi normativ-huquqiy hujjat loyihasining ilmiylik darajasini oshirishga imkon beradi.

Shuningdek, ayrim mamlakatlarda olimlarning norma ijodkorligi jarayoniga ilmiy asoslantirilgan taklif va ishlanmalari bilan qatnashishi moddiy jihatdan rag'batlantiriladi yoki mansabdor shaxs sifatida maxsus shtat birligi yaratilgan. Jumladan, Avstraliyada "Yil olimi mukofoti" (Scientist of the year award – mukofot miqdori 30 ming Avstraliya dollari) [34], Buyuk Britaniyada esa "Bosh vazirning ilmiy maslahatchisi" (Government Chief Scientific Adviser) [35]

shtat birligi joriy etilgan. Yevropa Ittifoqi ma'muriyati norma ijodkorligi jarayonini ilmiy tadqiqotlar bilan qo'llab-quvvatlash maqsadida 2030-yilgacha issiqxona gazlari miqdorini kamida 40 foizga qisqartirish uchun ilmiy tadqiqotlarga 320 milliard yevro ajratgan [36].

Norma ijodkorligi uchun maxsus ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish bo'yicha AQSh tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, Kongress "Oilaviy chekishning oldini olish va tamaki nazorati to'g'risida"gi (Family Smoking Prevention and Tobacco Control Act [37]) qonun doirasida Oziq-ovqat va giyohvand moddalar ma'muriyati (Food and Drug Administration) [38] qoshidagi markazga jamiyatdagi kashandalikning oldini olish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish majburiyati yuklanadi.

Ushbu markaz Milliy sog'liqni saqlash institutlari (National Institute of Health) bilan hamkorlikda Tamaki mahsulotlarini tartibga solish ilmiy markazi (Tobacco Centers of Regulatory Science) tarkibidagi 14 ta ilmiy-tadqiqot markazlariga ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun 273 million dollar mablag' ajratadi [39].

Shunday ilmiy tadqiqotlar natijasida tamaki mahsulotining tashqi o'ramiga yoziladigan "chekish xavfli" va shunga o'xshash ogohlantiruvchi so'z birikmalarining samarasiz ekanligi aniqlandi [40]. Chakana savdo nuqtalaridagi tamaki mahsulotlarining ijtimoiy tasviri va reklamalar undan ko'ra ta'sirli va samaraliroq ekanligi aniqlanadi.

Markaz tomonidan tegishli qonunchilikka reklamalarga cheklov qo'yish bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklifi kiritiladi. Qonun amalga kiritilgach, u o'z ta'sirini ko'rsatib, chekuvchilarning soni kamaya boshlaydi.

Xulosalar

Yuqorida keltirib o'tilgan olimlarning fikr-mulohazalari, tadqiqot natijalari va xorijiy tajribani tahlil etish orqali "norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan

ta'minlash" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "norma ijodkorligi jarayoni-ni ilmiy axborot bilan ta'minlash – bu normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxs-lar tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyi-halarini ishlab chiqishda ilmiy tadqiqotlar, ilm-fan yutuqlari, ilmiy tahlillar natijalaridan foydalanish jarayonidir".

Albatta, bu tushuncha umumnazariy ahamiyatga ega bo'lib, uning o'ziga xos ji-hatlarini talqin etishda ilmiy axborot bilan ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish, unda ilmiy axborot hamda ilmiy axborot bi-lan ta'minlovchi subyektlarga qo'yilgan talab-lar, ilmiy axborotning o'ziga xos xususiyat-lari, ilmiy axborot bilan ta'minlash prinsiplari hamda boshqa masalalar inobatga olinishi zarur, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqishda ilmiy ax-borotdan foydalanish zarurligini belgi-lash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasi, "Qonunlar loyihala-rini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kirit-ish tartibi to'g'risida"gi Qonunning 27-mod-dasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, "Qonunlar loyi-halarini tayyorlash va O'zbekiston Respub-likasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Res-publikasi qonunining 27-moddasi quyidagi 5¹-bandi bilan to'ldirilishi lozim:

"5¹) qonun loyihasi yuzasidan zaruriy bilim va malakaga ega bo'lgan mutaxassis yoki olimlarning ilmiy xulosasi".

Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan olimlarning fikrlari hamda ilg'or xorij ta-jribasini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi 2021-yil 20-apreldagi "Norma-tiv-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni-

ning 22-moddasi to'rtinchi qismiga quyidagi o'zgartirish kiritilishi zarur:

"Ishlab chiquvchi ishchi guruh (komissi-ya)ning faoliyatini axborot bilan ta'minlash-da davlat organlari hamda boshqa tashkilo-tlardan normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan material va ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjat lo-yihasi yuzasidan olimlar, ekspert va mutaxas-sislarning maslahat, taklif hamda tavsiyalari-ni olishi majburiydir".

Shu bilan birgalikda, intellektual mulk qonunchiligi talablariga amal qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xo-rijiy yoki respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalari, ilmiy tadqiqot institutlari faoliyati natijalari e'lon qilingan tahliliy ma-teriallar, ilmiy konferensiya materiallarida chop etilgan ishlarini "Ilmiy axborot" milliy ilmiy-texnik bazasida integratsiyalashtirish, ilmiy darajalar olish uchun talabgorlarning ilmiy-tahliliy faoliyati ishlari, dissertatsiya va avtoreferatlarini aks ettirish, O'zbekiston Respublikasining Milliy ilmiy-texnik bazasini rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish ma-qsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, norma ijodkorligi jarayonida ilmiy axborot, ilmiy tadqiqotlar natijalari, olim va mutaxas-sislarning fikr-mulohazalaridan foydalanish normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotda to'laqonli ishlab ketishi, ilmiy faoliyatning amaliy ta'siri, olimlarning norma ijodkorligi subyektlari bilan rag'batli, uzviy va samarali hamkorligi, ilmiy jamoatchilikning sharaf va hurmati oshishiga zamin yaratishi mumkin. Shu sababli ilmiy tadqiqotlar natijalaridan norma ijodkorligi jarayonida foydalanish nor-mativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining har tomonlama ilmiy tahlilini olib borish, ularni ishlab chiqishda olimlarni jalb qilish, ularni rag'batlantirish, ilmiy asoslantirish kabilarni qamrab olishi lozim deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Axmedshayeva M.A. Davlat hokimiyati tizimida ijro hokimiyati [Executive power in the system of state power]. Doctor's degree dissertation. 12.00.01. Tashkent, TSUL, 2010, 273 p.
2. Abdullayev Q.Q. O'zbekistonda qonun ijodkorligini takomillashtirish muammolari [Problems of improving law-making in Uzbekistan]. Tashkent, TSUL, 2013, 55 p.
3. Berdiyarov Sh.N. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik texnikasi [Legislative technique in the bicameral parliament]. Abstract of PhD thesis. 12.00.01. Tashkent, TSUL, 2009, 24 p.
4. Rustamov P.A. Nauchno-informatsionnoye obespecheniye zakonotvorcheskoy deyatel'nosti v Respublike Uzbekistan [Scientific and information support of legislative activity in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2001, 149 p.
5. Tulteyev I.T. Pravotvorcheskaya deyatel'nost' i prognozirovaniye [Lawmaking and Forecasting]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2008, 178 p.
6. Shodiqulov O.Z. Yuridik texnika va qonunlar sifatini oshirish muammolari [Problems of improving the quality of legal techniques and laws]. Abstract of PhD thesis. 12.00.01. Tashkent, TSUL, 2011, 24 p.
7. Hayitov X.S. Qonun ijodkorligida ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improving the organizational and legal basis of expertise in law-making]. Tashkent, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, 2018, 298 p.
8. Saydullayev Sh.A. Voprosy sovershenstvovaniya nauchno-teoreticheskikh i metodologicheskikh osnov normotvorcheskoy deyatel'nosti v Respublike Uzbekistan na fone zarubezhnogo opyta [Issues of improving the scientific, theoretical and methodological foundations of rule-making activities in the Republic of Uzbekistan and the background of foreign experience]. Tashkent, Studia Politologizm, 2019, no. 52, pp. 132–148.
9. Choi B., Gupta A., Ward B. Good thinking: six ways to bridge the gap between scientists and policy makers. *Journal of epidemiology and community health*, 2009, no. 63 (3). pp. 179–180.
10. The official telegram channel of the Ministry of Healthcare of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://t.me/ssvuz/11743/>.
11. The official web page of the Ministry of Healthcare of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://www.minzdrav.uz/uz/about/detail.php?ID=62457/>.
12. Official webpage of the World Health Organization. Available at: <https://www.who.int/news/item/15-10-2020-solidarity-therapeutics-trial-produces-conclusive-evidence-on-the-effectiveness-of-repurposed-drugs-for-covid-19-in-record-time/>.
13. Mamasiddiqov M. Yuridik sohada ilmiy kadrlarni tayyorlash holati va tahlili [Status and analysis of the training of scientific personnel in the legal sphere]. *Huquq va burch – Right and Duty*, 2020, no. 8, pp. 8–18.
14. The official website of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. Available at: <http://oak.uz/pages/69/>.
15. Ferraro F., Zambon A. Ekins's moral assumptions and their impact on the analysis of legislation. *American Journal of Jurisprudence*, 2019, vol. 64, no. 1, pp. 19–40.
16. Smith K. Beyond Evidence-based policy in public health: the interplay of ideas. Hampshire, UK, Palgrave Macmillan, 2013, 251 p.
17. Kammerhofer J. Law-making by scholarship? The dark side of 21st century international legal 'methodology'. *The European Society of International Law*, 2012, vol. 3, pp. 115–126.
18. The official webpage of Sciencedirect project. Available at: <https://www.sciencedirect.com/>.
19. The official webpage of Scopus. Available at: <https://www.scopus.com/>.
20. The official webpage of Tubitak. Available at: <https://www.tubitak.gov.tr/>.
21. The official webpage of Scimago Ranking. Available at: <https://www.scimagojr.com/>.
22. The official webpage of Elibrary project. Available at: <https://www.elibrary.ru/>.

23. Hamann H. Methoden empirischer forschung und ihr erkenntniswert für das Recht am Beispiel des gesellschaftsrechts. *Evidenzbasierte Jurisprudenz – Evidence-based Jurisprudence*, 2014, no. 21, 393 p.
24. Xo'janazarov A.A. Adliya organlarining norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish [Improvement of rule-making activities of justice bodies]. Tashkent, TSUL, 2021, 143 p.
25. Antokolskaia M. Van politiek gestuurde wetgeving naar evidence-based wetgeving. Den Haag, Boom Juridische uitgevers, 2013, no. 7, pp. 173–207.
26. Byrne D. Applying social science: The role of social research in politics, policy and practice. Bristol, Policy Press, 2011, pp. 99–119.
27. Berman M. Communicating tobacco product information to the public. *Food and Drug Law Journal*, 2017, vol. 72, no. 3, pp. 386–405.
28. Thompson L. Making British law. Committees in action. University of Surrey, UK, Palgrave Macmillan, 2015, 161 p.
29. Maddox B. How to engage with policy makers. A guide for academics in the arts and humanities. The Institute for Government (London), 2020, 26 p.
30. Delvenne P., Fallon C., Brunet S. Parliamentary technology assessment institutions as indications of reflexive modernization. *Technology in Society*, 2011, no. 33, 36 p.
31. Shapiro S.A. Law, expertise and rulemaking legitimacy: revisiting the reformation. *Environmental Law, Lewis & Clark Law School*, 2019, vol. 49, no. 3, pp. 661–682.
32. Summary of White House Office of Management Budget M-21-27: Evidence-Based Policymaking. Washington, 2021, 4 p.
33. Organizatsiya zakonoproektnoy raboty v sisteme federal'nykh organov ispolnitel'noy vlasti [Organization of legislative work in the system of federal executive bodies]. Ed. T.Ya. Khabriyeva. Moscow, Yurist Publ., 2006, p. 97.
34. Official webpage of the Australian Treasury and Economic Development Directorate. Available at: <https://www.cmtedd.act.gov.au/communication/scientistofyear/>.
35. Official webpage of the British Government. Available at: <https://www.gov.uk/government/people/patrick-vallance/>.
36. How European scientists will spend €100 billion. Available at: <https://www.nature.com/articles/d41586-019-01566-z/>.
37. Ashley D.L., Backinger C.L., Bemmell D.M., Neveleff D.J. Tobacco regulatory science: research to inform regulatory action at the Food and Drug Administration's Center for Tobacco Products. *Nicotine Tob Res.*, 2014, no. 16 (8), pp. 1045–1049.
38. Official web page of Food and Drug Administration. Available at: <https://www.usa.gov/federal-agencies/food-and-drug-administration/>.
39. Printz C. TCORS set to support the FDA's regulatory role: program designed to generate tobacco-related research to inform policy. *Cancer Scope*, 2014, pp. 771–772.
40. Kim A.E. Influence of point-of-sale tobacco displays and graphic health warning signs on adults: evidence from a virtual store experimental study. *American Journal of Public Health*, 2014, no. 104 (5), pp. 888–895.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 1-SON

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 24.02.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 19,30 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 11.

TDYU tipografiyasida chop etildi.